

BOLALARDA KO'PROQ UCHRAYDIGAN YUQUMLI KASALLIKLAR .

Viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi.

Bolalar bo'limi .



To'laeva Sanobar



Annotatsiya :Ushbu

keng tarqalgan yuqumli kasalliklar, ularning kelib chiqish sabablari, yuqish yo'llari hamda oldini olish choralariga oid ma'lumotlar yoritilgan. Bolalar organizmi hali to'liq shakllanmaganligi sababli turli infeksiyalarga tez chalinadi. Shuning uchun bolalarda uchraydigan qizamiq, suvchechak, ko'kyo'tal, qizilcha, gripp kabi kasalliklarning belgilari, tarqalish yo'llari va profilaktikasi haqida ma'lumot berish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, emlash va gigiyena qoidalariga rioya qilish bolalarni ushbu kasalliklardan himoya qilishda muhim omil hisoblanadi..




Kalit so'z : Yuqumli kasalliklar, bolalar salomatligi, infeksiya, qizamiq, suvchechak, qizilcha, ko'kyo'tal, gripp, immunitet, profilaktika, emlash.

Kirish: Bolalar salomatligini saqlash jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. Ayniqsa, bolalarda uchraydigan yuqumli kasalliklar sog'liqni saqlash tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Yuqumli kasalliklar turli mikroorganizmlar – viruslar, bakteriyalar va boshqa patogenlar orqali tarqaladi. Bolalar organizmi hali to'liq rivojlanmaganligi sababli ularning immun

tizimi kattalarnikiga nisbatan zaifroq bo'ladi. Shu sababli ular infeksiyon kasalliklarga tezroq chalinishi mumkin.

Bolalarda ko'proq uchraydigan yuqumli kasalliklar qatoriga qizamiq, qizilcha, suvchechak, ko'kyo'tal, gripp va boshqa respirator infeksiyalar kiradi. Ushbu kasalliklar ko'pincha havo-tomchi yo'li orqali yoki bemor bilan bevosita aloqa qilish natijasida yuqadi. Ba'zi hollarda esa gigiyena qoidalariga amal qilinmasligi ham kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'ladi.

Yuqumli kasalliklarning oldini olishda profilaktika tadbirlari muhim o'rin tutadi. Jumladan, bolalarni o'z vaqtida emlash, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish orqali kasalliklarning oldini olish mumkin. Shu sababli bolalarda uchraydigan yuqumli kasalliklar haqida bilimlarni oshirish hamda ularning oldini olish choralari haqida ma'lumot berish katta ahamiyatga ega.



Bolalar kasalliklari

— asosan bolalar orasida uchraydigan yoki bolalik davrida o'ziga xos kechadigan kasalliklar guruhi. Bolaning rivojlanish xususiyatlariga ko'ra ona qornida o'sish davri, chaqaloqlik davri (1 oy), go'daklik davri (1 yoshgacha), maktabgacha davri (3 yoshdan 7 yoshgacha), boshlang'ich maktab yoshidagi (12

yoshgacha) va o'smirlik yoki balog'atga yetish davri (18 yoshgacha) farq qilinadi. Ona qornida o'sish davri bolaning shakllanishida muhim rol o'ynaydi; homiladorlik davridagi zararli omillar (kasalliklar, intoksikatsiyalar, zararli odatlar: chekish, alkohol yoki giyohvand moddalar iste'moli, turmush va ovqatlanish sharoitlarining qoniqarsizligi, dori-darmonlar ta'siri) onagagina emas, qornidagi homilaning o'sishi va rivojlanishiga ham ta'sir etadi. Bu davrda ko'proq tug'ruq vaqtidagi zararlanishlar (asfiksiya, shikastlanishlar, falajlar, stafilokokk infeksiyalar) kuzatiladi. Chaqaloqlar ayrim infeksiyon kasalliklarga tug'ma chidamli bo'ladi. Chunki boalaning dastlabki yillarida onadan bolalarga o'tgan tug'ma immunitet bolani turli kasalliklardan himoya qiladi. Biroq ularga (ayniqsa, chala tug'ilgan bolalarga) yiringlatuvchi mikroblar avvalo, stafilokokklar tez ta'sir qilib, kindik jarohatining yiringli yallig'lanishiga, chilla yaraga va hatto chaqaloqlar sepsisi kabi og'ir kasallikka sabab bo'ladi. Bu davrda zotiljam ham xavfli kasallik hisoblanadi. Emizikli davrida bola ovqatning o'zgarishiga moslanishi ancha qiyin, uni noto'g'ri ovqatlantirilganda me'daichak buzilishlari (diareya, ichak infeksiyalari va boshqalar), moddalar almashinuvining buzilishi kuzatiladi. Shuningdek bolani ko'krak suti, quruq sut aralashmalari, shirin sharbatlar bilan normaga nisbatan ko'p oziqlantirilganda, shuningdek, balanslanmagan, tarkibida ko'p uglevodlar va oqsil kam bo'lgan (masalan, bo'tqalar ko'p berilsa), eksudativ-kataral diatez, limfatiko-gipoplastik diatez kabi kasalliklar rivojlanishi mumkin. Uzoq muddatli ko'p ovqatlantirish va giodinamiya bolalarda semizlikka olib keladi. Chaqaloqlik davrda nafas va hazm a'zolarining kasalliklari og'ir o'tadi; bolani noto'g'ri ovqatlantirish, sof havo va quyosh nuridan yetarli bahramand etmaslik natijasida raxit avj oladi, diatez, spazmofiliya botbot uchraydi. Maktabgacha tarbiya oldi davr va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga o'z tengqurlari bilan o'ynab yurgan chog'ida ko'kyo'tal, qizamiq, difteriya, tepki va boshqa yuqishi mumkin. Bundan tashqari, onasidan o'tgan immunitetning kuchi yo'qoladi. Shuning uchun bu davrda bolalar emlanib (vaksinatsiya), immunitet vujudga keltiriladi. Maktab yoshidagi bolalarda yuqumli kasalliklar ko'proq uchraydi. Emizikli bola ko'kyo'tal va qizamiq bilan og'riganda ko'pincha o'pkasi ham yallig'lansa, maktab yoshidagi

bolalarda bu kasalliklar aksari asoratsiz o'tadi (o'pka yallig'lanmaydi). Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda angina, yurak va buyrak kasalliklari, shuningdek allergik kasalliklar ko'proq uchraydi. Kattaroq bolalarda va o'smirlik (balog'atga yetish) davrida yuraktomir, nerv va endokrin sistemalar (ichki sekresiya bezlari) faoliyatida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Sof havodan yetarli bahramand bo'lmaydigan, sport bilan shug'ullanmaydigan, kun tartibiga rioya qilmaydigan o'quvchilarda bu sistemalar ko'proq kasallanadi. Demak, Bolalar kasalliklari ning turli shakllari organizmning chidamliligiga, yuqumli kasalliklarga qarshilik ko'rsatish kuchiga, bolaning yoshiga bog'liq. Har bir kasallik, u qanday bo'lishidan qat'i nazar (yuqumli yoki yuqumsiz) jismonan barkamol, sog'lom bolada yengilroq, ozg'in, nimjon bolada esa og'irroq o'tadi. Bir xil mikroob qo'zg'atgan kasallik bolaning turli yoshida turlicha kechadi. Bolalar kasalliklari ning oldini olishda bola organizmining o'ziga xos xususiyatlari ko'zda tutiladi. Emizikli davrda ona suti eng maqbul oziq bo'lib, bolani qo'shimcha ovqatlantirish zaruriyati bo'lganda faqat vrach (pediatr) bilan maslahatlashib olish kerak. Go'daklarni sut oshxonalar orqali ovqatlantirishning to'g'ri tashkil qilinishi katta ahamiyatga ega. Bolalar kasalliklari qancha barvaqt aniqlanib, vaqtida davolansa, asorati qolmaydi. Buning uchun kattalar va ota-onalar Bolalar kasalliklari ning oldini olish usullarini va dastlabki belgilarini bilishlari, bolada kasallikka xos biror alomat sezganda darhol vrachga murojaat etishlari zarur.

Infeksion kasalliklar — patogen mikroorganizmlar ([bakteriyalar](#), viruslar, eng sodda jonivorlar va hokazo)ning kishi, hayvon va o'simlik organizmiga kirib ko'payib, zararli ta'sir ko'rsatishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklar. Infeksion kasalliklardan ba'zilar (masalan, qizamiq) bemorga yaqin yurilganda yuqadi, ularga „yuqumli kasalliklar“ termini juda mos keladi. Infeksion kasalliklardan ba'zilar (masalan, bezgak) bemorga yaqin yurilganda („kontakt“ yo'li bilan) yuqmaydi, demak, ularga „yuqumli kasalliklar“ termini unchalik to'g'ri kelmaydi.

Bemor organizmida shu kasallikni vujudga keltiruvchi maxsus mikroob borligi va kasallikning odamdan odamga yuqishi mumkinligi Infektsion kasalliklarning asosiy belgilaridir.

Infektsion kasalliklarning chinakam sabablari 19-asrning 2-yarmida L. Paster, R. Kox, I. I. Mechnikov va b. olimlarning ishlari bilan isbot qilindi. Ba'zi kasalliklar ([vabo](#), [ich terlama](#), paratif, dizenteriya va b. ichak infeksiyalari) hazm yo'li orqali (bemorlar najasi tushgan suv va oziq-ovqat yoki shu najas zarralari tekkan yuvuqsiz qo'l orqali) yuqadi. Bemor yo'talganda, aksa o'rganda, so'zlashganda chiqadigan mayda shilimshiq zarralari havo bilan nafas yo'llariga kirishidan kelib chiqadigan kasalliklar (tomchili infeksiyalar)ga gripp, ko'kyo'tal, parotit, difteriya, qizamiq va b. kiradi. Ba'zi kasalliklarqon so'rar hasharotlar (bit, chivin, burga, kana, iskabtopar va hokazo) orqali yuqadi (bezugak, toshmali terlama, qaytalovchi terlama, kana va chivin orqali yuqadigan ensefalitlar, iskabtopar isitmasi va hokazo). Bemorga yaqin yurganda yoki uning sochig'i, idishtovog'i va b. buyumlaridan foydalanganda yuqadigan kasalliklar (tanosil kasalliklari, kuydirgi, kal yara va b.) alohida guruhni tashkil etadi. Infektsion kasalliklar bir necha kun (gripp, qizamiq, iskabtopar isitmasi) yoki bir necha hafta (ich terlama, toshmali terlama va b.) davom etishi yoki oylab va hatto, yillab cho'zilishi mumkin (sil, moxov, zaxm). Infektsion kasalliklar kelib chiqishi organizmga kirgan patogen mikroblarning soniga, viru-lentligiga, kirgan joyiga, kishining yoshiga, infeksiyaga moyilligiga, shuningdek, mikroob atrofida tashqi muhit sharoitiga (noqulay sharoitda mikroobning virulentligi kamayadi) bog'liq. Infektsion kasalliklarning paydo bo'lishi va uti-shida ijtimoiy sharoit (uy-joy, ovqatlanish tarzi, madaniy saviya, tibbiy yordam) hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sharoitning o'zaro ta'siriga qarab Infektsion kasalliklarning turli (tipik — rostmana, yengil va b.) shakllari na-moyon bo'ladi. Infektsion kasalliklarning o'tishida inku-batsion davr, kasallik simptomlarining paydo bo'lish va oshib borish davri, kasallik avjiga chiqqan davr, kasallikning so'nish davri va sog'ayish davri farq qilinadi. Infektsion kasalliklarning har birida shu davrlarning o'ziga xos xu-susiyatlari bor. Ich terlama kabi ba'zi Infektsion kasalliklar mikrobi og'rib o'tgan organizmida saqlanib qoladi va

tevarakatrofdagi muhitga chiqaveradi. Ko'pgina Infeksion kasalliklardan keyin immunitet qoladi. Masalan, Infeksion kasalliklarni aniqlashda kasallikning klinik belgilari, lab.da tekshirish natijalari va epidemiologik ma'lumotlar asos qilib olinadi. Bemorlar maxsus jihozlangan infeksiion kasalxonalarda davolanadi. Infeksiion kasalliklarga qarshi kurashda profilaktika tadbirlari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Infeksiion kasalliklarning yanada tarqalishiga yo'l qo'ymaslik uchun shunday kasalliklar bilan og'rgan bemorlar yoki shunday kasallik bor deb gumon qilingan kishilar kasalxonada yoki uyida ajratib qo'yiladi. Toun (chuma), vabo (xolera), toshmali terlama (toshmali tif), ich terlama (qorin tifi), paratif, dizenteriya, virusli gepatit, difteriya va b. kasalliklar topilgan yoki gumon qilingan kishilarni maxsus sanitariya transportida kasalxonaga olib borib yotqizish shart. Gripp, qizamiq, ko'kyutal va b. ba'zi Infeksiion kasalliklar bilan og'rgan bemorlarni alohida xonaga yotqizish, tegishlicha parvarish qilish va dezinfeksiya o'tkazib turish sharti bilan uyida ajratib qo'yish mumkin.

Sanatoriylar, dam olish uylari, bolalarni sog'lomlashtirish muassasalari, bolalar bog'chalari va yaslilarda, shuningdek, kasalxonalarning terapiya, xirurgiya, pediatriya va b. (infeksiion bo'limidan tashqari) bo'limlarida izolyator jihozlanadi. Ayniqsa, xavfli infeksiyalar (toun, vabo) bilan og'rgan bemorlarga yaqin yurgan kishilarni o'sha kasalliklarning inkubatsion davriga teng keluvchi muddat bilan ajratib qo'yish shart. Boshqa infeksiion kasalliklarda bemorlar turli muddat bilan ajratib qo'yiladi (jadval).



XULOSA Xulosa qilib aytganda, bolalarda uchraydigan yuqumli kasalliklar jamiyat salomatligi uchun muhim muammolardan biridir. Ushbu kasalliklar tez tarqalishi va bolalar organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan xavflidir. Shuning uchun kasalliklarni erta

aniqlash, davolash va ularning oldini olish choralari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarni yuqumli kasalliklardan himoya qilishda eng samarali usullardan biri emlash hisoblanadi. Bundan tashqari, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish, toza muhitda yashash, to'g'ri ovqatlanish va immunitetni mustahkamlash ham muhimdir. Ota-onalar, tibbiyot xodimlari va ta'lim muassasalari birgalikda ish olib borsa, bolalarda uchraydigan ko'plab yuqumli kasalliklarning oldini olish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. **Bolalar yuqumli kasalliklari bo'yicha qo'llanma**. Toshkent, 2020.
2. Abdukarimov A. **Bolalar kasalliklari**. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2019.
3. Axmedov Sh. **Yuqumli kasalliklar epidemiologiyasi**. Toshkent, 2018.
4. Ismoilov A. **Bolalar salomatligi va profilaktika**. Toshkent, 2021.
5. Karimov I. **Tibbiyot asoslari**. Toshkent, 2017.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish to'g'risidagi qarorlari**.
7. World Health Organization. **Childhood Infectious Diseases**. Geneva, 2020.
8. UNICEF. **Children's Health and Immunization Programs**. 2019.
9. Nabiyeu T. **Bolalar gigiyenasi**. Toshkent, 2018.
10. Internet manbalari: Sog'liqni saqlash vazirligi rasmiy sayti va tibbiy portallar.